

KUN TARTIBI:

“Farmatsevtika sohasidagi yuzaga kelayotgan muammolar hamda aholini sifatli va arzon dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash” mavzusida ochiq muloqot

(A.Qayumov, F.Toshpulatov, D.Botirov, A.Qayumov,)

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan “Farmatsevtika sohasidagi yuzaga kelayotgan muammolar hamda aholini sifatli va arzon dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi.

Mazkur davra suhbatida dori vositalari va tibbiy buyumlarini ulgurji hamda chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi jami 112 ta xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari hamda vakillari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari F.M.Tashpulatov – aholini dori vositalari bilan ta’minlashda salmoqli hissa qo‘shayotgan tadbirkorlik subyektlari bilan ko‘rishib, ularning muammolarini o‘rganish va birgalikda yechim topishga Sog‘liqni saqlash vazirligi tayyor ekanligini bildirdi

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari A.Qayumov - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldaggi PF-108-sondagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 3-bandiga muvofiq, “Biz sizni eshitamiz!” loyihasi joriy etilgani va ushbu loyihaning asosiy maqsadi tarmoqdagi tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, raqobatga to‘siq bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish tizimini yo‘lga qo‘yishdan iboratligi tushuntirildi.

Shuningdek, dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji hamda chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan farmatsevtika sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni ijobiy hal qilish, aholini sifatli va arzon dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash birinchi maqsad ekanligini alohida ta’kidladi.

Joriy yilda, Qo‘mitada mazkur sohada iste’molchilar huquqlarini himoya qilish yo‘nalishida ishlarni jadallashtirish maqsadida, Tibbiyat va farmatsevtika sohasida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘limi tashkil etilganligi haqida ma’lumot berdi.

Bundan tashqari, 2023-yil may oyidan dori vositalariga belgilangan ustamalarni yuqori qo‘llanilgani haqidagi huquqbazarliklarni avtomatik ravishda aniqlash tizimi qayta ishga tushirilganidan keyin sinov davri, 2023-yil sentabr oyi mobaynida:

- dori vositalarining chakana savdosi sohasidagi huquqbazarliklar haqida jami 668 mingdan ortiq kelib tushgan elektron xabar bo‘yicha iste’molchilardan 50,8 mlrd so‘mdan ortiq asossiz mablag‘ olinganligi;

- dori vositalari ulgurji savdosi sohasidagi huquqbazarliklar haqida kelib tushgan jami 62 mingdan ortiq elektron xabar bo‘yicha, xo‘jalik yurituvchi subyektlardan jami 8,1 mlrd so‘mdan ortiq asossiz mablag‘ olinganligi aniqlangani, qayd etilgan davrda kelib tushgan murojaatlар tahlili natijasida ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlardan bir oyda o‘rtacha 58,9 mlrd so‘mdan ortiq asossiz mablag‘ olinayotganligi aniqlanganligi aytib o‘tildi.

Shundan so‘ng, Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi davlat muassasasi mas’ul xodimi D.Fayziyev - Dori vositalariga referent narx

shakllashtirish tartibi va unga kiritilayotgan o‘zgartirishlar haqida ma’lumot berdi.

Tadbir davomida tadbirkorlik subyektlari tomonidan sohaga oid quyidagi muammolar bayon etilib, takliflar bildirildi:

“Shifokor-82” oilaviy korxonasi rahbari - Y.Xo‘ajanazarov O‘zbekiston Respublikasi “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddati o‘tgach dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani realizatsiya qilishga hamda tibbiyot amaliyotida qo‘llashga, agar ular ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasining amal qilishi davrida ishlab chiqarilgan bo‘lsa, ruxsat etilishi belgilangan bo‘lsada, Bojxona qo‘mitasi tomonidan ushbu tartibga oxirgi vaqlarda amal qilinmayotganligi oqibatida, bir necha turdag‘i dori vositalarining respublikamiz bozorlarida taqchilligiga sabab bo‘layotganligi bildirdi;

Dori vositalariga narx shakllanishida markirovka kodlari uchun to‘lovlarni arzonlashtirish yoki oldindan to‘lov tizimini bekor qilib, faqat foydalanilgan markirovka kodlari uchun to‘lov o‘tkazish, xarid qilingan markirovka kodini o‘rnatish jarayonida inson omili yoki texnik vaziyat tufayli zarar yetkazilganda, uni o‘qishni imkon bo‘lmasligi sababli tizimga kiritilmasa to‘lovnii bekor qilish taklifi bildirildi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog‘ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4554-son qarori 1-band, a-kichik bandiga muvofiq, 2020-yil 1-iyuldan boshlab dori shakli, qadoqdagi soni, dozasi, konsentratsiyasi, hajmi va qadoqlanishini hisobga olgan holda dori vositasining har bir savdo nomi uchun belgilangan eng yuqori narxini qayd etish. Bunda dori vositasini ushbu qiymatdan yuqori narxlarda O‘zbekiston Respublikasiga yetkazib berish (*import dori vositalari uchun*) va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotilishi (*mahalliy dori vositalari uchun*) mumkin emasligi, tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reyestriga kiritilgan dori vositalarining referent narxlарini Sog‘lioni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi tomonidan ariza beruvchining tegishli ariza taqdim etishidan qat’i nazar qayd etish belgilangan bo‘lsada alohida tizim qilib, qaror talablariga zid ravishda narx shakllantirish uchun qo‘srimcha hujjalalar talab qilish hanuzgacha davom etayotganligini, Prezident qarorini bajarilishini nazoratga olinishi so‘raldi;

Dori vositalarini ro‘yxatga olishda Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi davlat muassasasiga topshirilgan hujjalarni qaytadan markirovka kodini olish uchun “CRPT TURON” MChJga topshirishni bekor qilib, integratsiya yo‘li bilan tadbirkorlarni ovora qilmasdan foydalanish taklif etildi;

“Sandoz” xalqaro farmatsevtika kompaniyasi vakili - M.Nazarov yangi taklif etilayotgan referent narxlarni shakllantirish tartibida kiritilgan Turkiya davlati bilan bizni respublikamizda xarid qilish hajmi o‘rtasidagi farqni inobatga olinmasdan qo‘silgan va boshqa referent davlatlardagi ma’lumotlarni tekshirish

uchun shaffof mexanizm joriy etilmaganligi sababli tartib loyihasini qayta ko'rib chiqishni taklif etdi;

"ALINFARM MEDICAL" MChJ vakili - A.Jabborov, dori vositalari va tibbiy buyumlarni majburiy raqamli markirovkalash talablarini qayta ko'rib chiqish kerakligini bildirdi. Bunda, "Shifokor-82" oilaviy korxonasi rahbari Y.Xo'ajanazarov tomonidan taklif etilgan dori vositalariga narx shakllanishida markirovka kodlari uchun uchun to'lovlarni arzonlashtirish yoki oldindan to'lov tizimini bekor qilib, faqat foydalanilgan markirovka kodlari uchun to'lovga o'tkazish, xarid qilingan markirovka kodini o'rnatish jarayonida inson omili yoki texnik vaziyat tufayli zarar yetkazilganida, uni o'qishni imkonni bo'lmasligi sababli tizimga kiritilmasada to'lojni bekor qilishni joriy etish va markirovkalash bo'yicha muddatni qayta ko'rib chiqilishi lozimligini bildirdi;

Retseptsiz dori vositalariga referent narx belgilash tizimini bekor qilib, narxlar faqat retsept bilan beriladigan dori vositalariga qo'llanishini taklif etdi;

2024-yil 1-yanvarga qadar, farmatsevtika mahsulotlarini chakana sotish bilan shug'ullanuvchi barcha mahalliy tashkilotlar Zarur farmatsevtika (*dorixona*) amaliyoti (*GPP*) milliy talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha talablar kuchga kirishi belgilangan. Biroq, dori vositalari chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalarning asosiy qismi ushbu standart talablari sertifikatlarini olmaganligi, ikki oydan so'ng yil tugashi bilan ularning litsenziyalari ham to'xtatilishiga, bu esa 50 foizdan ortiq dorixonalarni yopilishiga va aholida dori vositalarini tanqisligiga olib kelishi mumkinligi sababli, mazkur talablarga o'tish muddatini uzaytirishni;

"Novotek" MChJ vakili hamda chet el ishlab chiqaruvchi kompaniyalari assotsiatsiyasi a'zosi – A.Sultanov dori vositalariga sertifikatlashtirish uchun topshiriladigan dori vositalari miqdorini qayta ko'rib chiqish lozimligini aytib o'tdi. Misol uchun, "NOVARTIS PHARMA STEIN, AG" tomonidan ishlab chiqarilgan ulgurji narxi 15 640 148 so'm etib belgilangan "Bonspri" preparatiga talab respublikamizda kam bo'lganligi uchun 80 quti olib kelinganligini, uni sertifikatlashtirish uchun hujjat topshirganida 79 quti talab etilganligi, bu esa o'z navbatida 1 235 571 692 so'mga aylanishi va qolgan bir quti dori vositasini ushbu harajatlarni qo'shib sotish imkonsiz ekanligini aytib o'tdi.

Rossiya Federatsiyasining "Национальная иммунобиологическая компания" vakili kompaniya Kokarboksilaza dori vositasini import qilish uchun kompaniyaning (*GxP*) sertifikati mavjud emasligi va bozorda ushbu kompaniyaning dori vositasini tanqisligi yuzaga kelganligi sababli, (*GxP*) sertifikatini talab qilish amaliyotini kechiktirish taklifi bildirildi.

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi o'rinnbosari A.Qayumov tadbirkorlik subyektlari tomonidan keltirilgan takliflar o'rinnli ekanligini inobatga olib, choratadbirlar rejasidagi ishlab chiqilishini hamda mas'ul vazirlik va idoralarga takliflar kiritilishini ma'lum qildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri o'rinnbosari F.M.Tashpulatov vazir buyrug'i bilan tasdiqlanadigan dori vositalariga referent narx shakllashtirish tartibi va unga kiritilayotgan

o‘zgartirishlarni tadbirkorlarning takliflari asosida qayta ko‘rib chiqilishini va tez kunda ushbu masalada yangiliklar bilan barchani xabardor etilishini ma’lum qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur sohani rivojlantirish va dori vositalarini tanqisligini oldini olish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlashdagi tizimli muammolar belgilab olinganligi hamda asoslantiruvchi ma’lumotlar asosida takliflar ishlab chiqilib, umumlashtirilgan holda Hukumatga takliflar kiritilishi ma’lum qilindi.